

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDА DIZARTRIYA, KELIB CHIQISH SABABLARI VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI**

*Moxirabonu G`aniyeva Adxam qizi*

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali 1-kurs magistranti*

*Xayitov Lazizbek Rustamjon o`g`li*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti ilmiy rahbar*

**Annotation.** Maqola maktabgacha yoshdagi dizartrik nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar bilan logopedik ish olib borish va ulaning nutqini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida.

**Kalit so‘zlar:** Nutq, tovush, fonetik-fonematik buzilishlar, dizartiya, artikulyatsiya, talaffuz, kompleks yondashuv.

**Аннотация:** В статье речь идет о логопедической работе с детьми дошкольного возраста с дизартрическим расстройством речи и особенностях их речевого развития.

**Ключевые слова:** Речь, звук, фонетико-фонематические нарушения, дизартрия, артикуляция, произношение, комплексный подход.

**Abstract.** The article is about speech therapy work with preschool children with dysarthric speech disorders and the specific features of their speech development.

**Keywords:** Speech, sound, phonetic-phonematic disorders, dysarthria, articulation, pronunciation, integrated approach.

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning to'g'ri shakllanishi, nutq kamchiliklarini yuzaga keltiruvchi sabablar, uning belgilari, uni bartaraf etish yo'llari haqida yoritilgan. Yosh bolalarda nutqning rivojlanishi ularning umumiy kognitiv va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi asosiy ro'l xisoblanadi. Biroq, yosh bolalarda nutqida nuqsonlar paydo bo'lishi odatiy hol xisoblanmaydi, bu ularning boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu nuqsonlar artikulyatsiya buzilishlari, fonologik buzilishlar va ravonlik buzilishidan tortib, apraksiya va dizartiya kabi og'irroq holatlargacha olib kelishi mumkin. Yosh bolalarda keng tarqalgan nutq nuqsonlarini tushunish ota-onalar, tarbiyachilar va o'qituvchilar uchun bolalarga ushbu qiyinchiliklarni yengishga yordam bera oladi. Yosh bolalarda tez-tez uchraydigan nutq nuqsonlaridan biri bu dizartiyadir. Dizartiya so‘zlarni to‘la, ravon talaffuz qila olmaslik, talaffuz nuqsonidir. U nutq apparati innervatsiyasida kamchilik borligiga bog‘liq bo‘ladi. Dizartiya uchun markaziy hamda periferik nerv sistemasining organik kasalliklari natijasida artikulatsiya mushaklarining falajlanish tufayli tovushlar talaffuzi va ovozning buzilishi harakterlidir. Dizartiya nutq mushaklari zaiflashgan yoki markaziy asab tizimining

kasalligi tufayli so'zlarni talaffuz qilishda qiyinchilik bo`lgan nutqining buzilishidir. Nutqga yordam beradigan mushaklarning bu shikastlanishi tilni yoki ovoz qutisini boshqarishni qiyinlashtiradi, bu esa odamning nutqini buzilishiga olib keladi. Bunday kamchilikka ega bolalar gapirishda qiynaladilar va ularning so`zlarini tushunish qiyin xisoblanadi. Bu xolat bilan og'riganlar jag', til va lab harakatlarining cheklanganligi sababli "g'o'ng'irlash" yoki "g'uldirash" nutqini boshdan kechirishadi. Ovoz balandligi yoki sifati o'zgarishi xirallagan yoki g'o'lidaydigandek bo`lib qolishi mumkin.

**Dizarteriya sabablari:** Dizartriyan keltirib chiqaradigan sabablar xilma-xildir. Dizartriya ko‘p xollarda ona qorinidagi bolaga ichki va tashqi omillarning salbiy ta’siri tufayli vujudga kelishi mumkin. Bunga onaning homiladorlik vaqtida ba’zi yuqumli kassaliklarga yo‘liishi, turli moddalarning zaharli ta’siri - intoksikatsiya, gipoksiya (kislород yetishmasligi), homilaning shikastlanishi, esfiksiya bo‘lib (kindigi o’ralib) tug‘ilishi va boshqalar kiradi. Dizartriya ba’zan bolaning go‘dakligida (1 yoshga yaqin vaqtida) kasal bo‘lishi (meningit, turli xildagi miningoensefalitlar bilan og‘rish) hamda markaziy nerv sistemasining shikastlanishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Ona bilan bola qonlari tarkibining bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi (rezus faktor) natijasida ham dizartriya kuzatishili mumkin.

Bolalardagi boshqa ko'plab nutq buzilishlari singari, dizartriya turli xil kasallikkarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

- Travmatik miya shikastlanishi;
- Miya shishi, miya yarim palsi;
- Nutq uchun ishlataladigan mushaklarning zaiflashishi;
- Asab tizimining buzilishi;
- Tishlarning yo‘qligi;
- ALS kasalligi;
- MS kasalligi;
- Qon tomirlari va travmatik miya shikastlanishi;
- Miya falaji;
- Demans;
- Progressiv supranuklear falaj;
- Parkinson kasalligi;
- Xantington kasalligi;
- Amiotrofik lateral skleroz;
- Ko'p skleroz.

Bundan tashqari dizartriyan keltirib chiqaradigan neyromotor muammolarning manbai qon tomir, travmatik, yuqumli, neoplastik, metabolik va boshqalar bo'lishi mumkin. Markaziy va periferik asab tizimidagi turli xil shikastlanishlar dizartriyaning har xil turlarini keltirib chiqaradi. Dizartriya atamasi odatda adabiyotlarda insult yoki

miya travmasi kabi miya shikastlanishi tufayli kattalarda yuzaga keladigan orttirilgan nevrologik nutq buzilishlari uchun ishlatiladi. Bolalikda kuzatilgan neyromotor nutq buzilishlari miya yarim palsi bilan bog'liq va "rivojlanish dizartri" deb ham ataladi.

Ko‘p hollarda dizartriya bolalarda uchraydigan serebral falaj oqibati tariqasi paydo bo‘ladi. YE .M. Mastukova ma’lumolariga ko‘ra, bolalar serebral falaji bilan kasallangan kishilarning 65-85 foizida dizartiya kuzatiladi.

Dizartriya nutq sistemasining barcha komponentlarida qandaydir o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin. Shunga ko‘ra dizartrik bolalar bir necha gruppalarga bo‘linadi: fonetik nuqsonli, fonetik-fonematik kamchilikli bolalar, nutqi umuman rivojlanmagan bolalar. Fonetik harakterdagi dizartriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rilsa, fonetik – fonematik harakterdagi dizartriyada tovushlarni ajratish, fonematik o‘quvni rivojlantirish, o‘xshash tovushlarni bir biridan ajratish, so‘z lug‘atini boyitish, grammatik tuzumni shakllantirib borish ustida ish olib boriladi. Dizartriyani bartaraf etishda, ko‘pincha, kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, fonetik mashqlar o‘tkazish, fonetik o‘quvni rivojlantirish, lug‘atni boyitish, bog‘lanishli-ma’noli nutqni o‘stirish, yozma nutqdagi kamchiliklarning oldini olish ustida ishslash talab etiladi.

Dizartriklar bilan maxsus logopedik ishlar og‘ir nutq kamchiliklari bor, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tashkil etilgan nutqiy bog‘chalarda, nutqiy matablarda yoki umumiylar ta’lim maktab qoshidagi nutqiy sinflarda, harakat-tayanch organlari jarohlangan bolalar uchun tashkil etilgan bog‘cha hamda maktab-internatlarda, psixonevrologik shifoxona- larning nutqiy bo‘limlarida olib boriladi. Dizartriyaning yengil shakllarini poliklinika qoshidagi logopedik kabinetlar, umumta’lim maktablaridagi logopedik punktlarda bartaraf etish mumkin.

Dizartriya qanchalik barvaqt aniqlansa, uni bartaraf etish, korreksiyalash choralari ham shuncha yaxshi naf beradi. Uzoq muddat ichida sabr-toqat, izchillik bilan logopedik mashg‘ulotlar olib borib, yuqori natijalarga erishish mumkin.

Faqatgina to‘g‘ri tashkil etilgan kompleks chora-tadbirlar, logoped bilan nevropatolog yoki psixonevrolog hamda ota-onalarining hamkorlik qilishi, logoped bilan massajist, davolovchi fizkultura mutaxassislarining birgalikda hamjihat bo‘lib ishlashi natijasidagina dizartriyani maksimal darajada bartaraf etib, bolaning atrofdagilar bilan to‘g‘ri aloqa bog‘lab, bemalol gaplasha oladigan bo‘lishini ta’minlash mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Akimenko V.M. “Yangi logopedik texnologiyalari.” – Rostov n/d.: Feniks, 2008. – 234
2. Aripova E.F. Dizartriya uchun logopedik massaj. – M.: AST:A Strel , 2008. – 123 b.
3. Aripova E.F. Dizartriyali bolalarda logopedik ishning oziga xos xususiyatlari. // korreksion pedagogika. - № 1. – 2004. - 36-42 b.

4. Ayupova.M.Y. —Logopediya O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2007.
5. Aripova E.F. Bolalarda miyachali dizartriyada korreksion ish– M.: AST: Astrel . – 2008. – 254 b.

